

**VADUD MAHMUDNING MUNAQQIDLİK FAOLIYATI**

*Farg‘ona davlat universiteti*

*Filologiya fakulteti o‘zbek tili yo‘nalishi*

*IV bosqich talbasi*

***Xolmatova Shahnoza***

**Annotatsiya** : Vadud Mahmud (1898–1976) XX asr boshidagi Turkiston madaniy va adabiy hayotida professional munaqqid va olim sifatida o‘chmas iz qoldirgan siymodir. Uning 1920-yillarda shakllangan adabiy-tanqidiy qarashlari o‘zbek tanqidchilik maktabining nazariy poydevorini mustahkamlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada munaqqidning badiiy asar tahlilidagi o‘ziga xos metodologiyasi, xususan, matnning tili, uslubi va badiiy tabiatini baholash mahorati ilmiy tadqiq etiladi. Tadqiqotda adibning milliy adabiy merosni zamonaviy jarayonlar bilan bog‘lashga qaratilgan estetik yondashuvlari va uning adabiyotshunoslik fanidagi o‘rni atroflicha yoritiladi.

**Kalit so‘z** : Vadud Mahmud, o‘zbek adabiy tanqidchiligi, professional munaqqidlik, adabiy metodologiya, badiiy tahlil, estetik yondashuv, matn uslubshunosligi, XX asr Turkiston adabiyoti, adabiy meros .

**Abstract** : Vadud Mahmud (1898–1976) was a prominent critic and scholar who played a vital role in the cultural and literary life of Turkistan in the early 20th century. His literary-critical views, established in the 1920s, hold a significant place in the development of the Uzbek school of literary criticism. This article scientifically examines the critic's methodology in analyzing literary works, specifically his mastery in evaluating language, style, and artistic nature. The research provides a comprehensive overview of the author's aesthetic approaches aimed at bridging the national literary heritage with modern processes and his role in literary studies.

**Keywords** : Vadud Mahmud, Uzbek literary criticism, professional

*criticism, literary methodology, artistic analysis, aesthetic approach, textual stylistics, 20th-century Turkestan literature, literary heritage.*

**Аннотация** : Вадуд Махмуд (1898–1976) — фигура, оставившая неизгладимый след в культурной и литературной жизни Туркестана начала XX века как профессиональный критик и ученый. Его литературно-критические взгляды, сформировавшиеся в 1920-х годах, сыграли решающую роль в укреплении теоретического фундамента узбекской школы критики. В данной статье научно исследуется уникальная методология критика в анализе художественного произведения, в частности, его мастерство в оценке языка, стиля и художественной природы текста. В исследовании подробно освещаются эстетические подходы автора, направленные на связывание национального литературного наследия с современными процессами, а также его роль в литературоведении.

**Ключевые слова:** Вадуд Махмуд, узбекская литературная критика, профессиональная критика, литературная методология, художественный анализ, эстетический подход, стилистика текста, литература Туркестана XX века, литературное наследие.

### **Kirish .**

Vadud Mahmud – XX asrning 20-yillari adabiy jarayonida o'ziga xos ilmiy salohiyatga ega bo'lgan munaqqid hamda o'zbek adabiy tanqidchiligining shakllanishiga salmoqli hissa qo'shgan yorqin iste'dod sohibidir. Garchi uning ijodi hayotlik davrida alohida tadqiq etilmagan bo'lsa-da, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy va Abdurahmon Sa'diy kabi adabiyotimiz ustunlari uning shaxsiyati va munaqqidlik faoliyatini yuksak e'tirof etishgan.

Mustabid tuzum davrida Vadud Mahmudga "panturkist" va "idealist" kabi siyosiy tamg'alar bosilib, u adabiy muhitdan uzoqlashtirildi, natijada mustaqillikkacha u haqda asosan salbiy fikrlar hukm surdi. Shunga qaramay, sho'ro

davrining so‘nggi yillaridayoq «Barhayot an’analar» to‘plami va ayrim maqolalarda uning merosiga nisbatan ijobiy munosabatlar ko‘zga tashlana boshladi. Istiqloq sharofati bilan adibning hayoti va ijodini xolis o‘rganishga yo‘l ochildi. Xususan, adabiyotshunos olim Bahodir Karimov bu borada fundamental tadqiqotlar olib bordi: munaqqid ilmiy merosi bo‘yicha nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi va «Jadid munaqqidi Vadud Mahmud» nomli maxsus risolasini nashr ettirdi..

Vadud Mahmudning ijodiy va amaliy faoliyati nihoyatda serqirradir. U 1920-yillarda maorif sohasida samarali mehnat qilib, maktab ta’limi va bola tarbiyasiga oid o‘nlab dolzarb maqolalar e’lon qildi. Garchi uning ijod namunasi janr va mavzu jihatidan xilma-xil bo‘lsa-da, u davr adabiy muhitida, avvalo, o‘tkir zehqli adabiyotshunos va munaqqid sifatida e’tirof etildi. Adabiyotshunos olim Bahodir Karimov ta’kidlaganidek, Vadud Mahmud adabiy-tanqidiy maqolalarida badiiy asarning nafisligiga, uning shakliy mukammalligi, tili va uslubiga alohida sinchkovlik bilan yondashadi. Ayniqsa, she’riyatdagi musiqiy ohang, san’atkorona daxldorlik va chuqur lirik dardni his etish hamda tahlil qilish uning tanqidchilik mahoratining o‘ziga xos qirrasidir.

### **Asosiy qism :**

Vadud Mahmud 20-yillardayoq zamonaviy adabiyotdan yuksak badiiylilikni, shakl va mazmundagi mukammallikni talab qilgan holda, ko‘hna adabiyotimiz tahlilini eng to‘g‘ri ilmiy yo‘nalishga boshlagan shaxslardan biridir. Uning fikricha: “Bizda she’rning ikki jabhasi bordir. Chunki ishqimiz ikki jabhalidir: haqiqiy va majoziy”.

**Mumtoz Adabiyot va ishq talqini .** Vadud Mahmud 1925-yilda “Maorif va o‘qituvchi” gazetasida chop etilgan “Bugungi she’rlarimiz va san’atkorlarimiz” nomli maqolasida Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub”, Fuzuliyning “Layli va Majnun”, Mashrabning “Mabdai nur” hamda Ahmad Yassaviyning “Hikmat” asarlaridagi ishqqa bo‘lgan munosabat va ularning talqinlari haqida so‘z yuritgan. Xususan, u “Mahbub ul-qulub” asariga tayanib, ishqni uch turga – haqiqiy, majoziy

va nafsoniy ishqqa ajratadi.<sup>1</sup>

**Milliy meros va mafkuraviy tazyiqlar** . Munaqqid o‘zining “Bugungi she’rlarimiz va san’atkorlarimiz” maqolasida Cho‘lpon, Fitrat va Abdulla Qodiriy kabi ijodkorlar merosiga, umuman, o‘sha davr o‘zbek nasri va nazmiga asosli hamda xolis baho bergan. Biroq uning millatparvarlik ruhi bilan sug‘orilgan fikrlari sho‘ro mafkurasiga zid kelgani sababli, o‘zi ham, asarlari ham quvg‘inga uchradi.

1927-yilda o‘tkazilgan O‘zbekiston madaniyat xodimlarining ikkinchi qurultoyidan u “Cho‘lpon maddohi” degan ayblov bilan haydaldi. Shundan so‘ng, Botu va Husayn Sa‘diy kabi shaxslar matbuotda uni qoralovchi maqolalar bilan chiqishdi. Hatto R. Majidiy nafis estetik did va yuksak ilmiy qobiliyat egasi bo‘lgan Vadud Mahmudni “idealist tanqidchi” deb atashgacha bordi. Zero, o‘sha davrda hukmron bo‘lgan “proletar adabiyoti” dunyoqarashi uning milliy qarashlarini qabul qila olmas edi.<sup>2</sup>

**Ijodiy uslub va insoniy munosabatlar**. Olim shoirning “yurak qoni bilan yozilgan” she’ridagi ishqni va dardni uning millatga hamda zamonga munosabati nuqtayi nazaridan tekshiradi. Munaqqidning uslubi va fikrlash tarzi ayniqsa e’tiborga loyiq:

“Ajziy shevada Fuzuliy yo‘lini tutgan shoirlardandur. Bu shoirimiz ham oshiqdur. Faqat buning ishqni na u tasavvuf ishqidir, na realist shoirlarning zohiriy ishqidir. Shoirimiz oshiqdur, ma’shuq esa xalqdur, millatdur. Millati va xalqiga muhabbati uning ishqidir. U ishq bizga shuni bildiradur...”<sup>3</sup>

U Cho‘lpon ijodiga nisbatan ham o‘ta nozik did bilan yondashgan. Cho‘lponning “Tong sirlari” to‘plamiga bag‘ishlab yozgan maqolasida “Ko‘ngil”, “Bas endi”, “Yer asirlari” she’rlari orqali shoirning kamolotini yoritgan. Yunus Hoji Maqsudiyning guvohlik berishicha, Vadud Mahmud bilan Cho‘lpon, A. Qodiriy, A.

---

<sup>1</sup> Vadud Mahmud. Tanlangan asarlar. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2007.

<sup>2</sup> Vadud Mahmud. Bu kungi she’rlarimiz va san’atkorlarimiz // “Maorif va o‘qituvchi” jurnali, 1925, 5-6, 7-8-sonlar.

<sup>3</sup> Bahodir Karimov. Vadud Mahmud: Hayoti va ijodi. – Toshkent: “Fan”, 2005.

Avloniy kabi ijodkorlar o'rtasida juda samimiy do'stlik bo'lgan.

**Ilmiy va tanqidiy faoliyatining ko'lami** .Vadud Mahmud adabiyot tarixining dolzarb masalalarini quyidagi maqolalarida keng yoritgan:

- Navoiygacha turk adabiyoti
- Alisher Navoiy
- Fuzuliy Bag'dodiy
- Navoiy uchun
- Turk adabiyoti tarixi
- Ilmiy adabiy vazifalar qarshisida

Uning faoliyati, mohiyatan, Cho'lpon va Fitrat asarlariga taqriz yozishdan boshlangan. Uning nishona maqolasi Fitratning "Chin sevish" pyesasi sahnaga qo'yilishi munosabati bilan yozilgan bo'lib, unda o'zbek teatri taqdiri haqida kuyunib gapiriladi.

Vadud Mahmud uchun tanqid (intiqod) – kamchiliklarni to'ldirish va asarning yaxshi tomonlarini tanish quroli edi. U davrning aksar zamonasoz tanqidchilaridan farqli o'laroq, tekshiruv mezoniga sinfiylik yoki kommunistik g'oyaviylik printsiptini asos qilib olmagan. U asarga har doim xolis olim va san'atkor ko'zi bilan qarab, san'atning ichki qonuniyatlarini birinchi o'ringa qo'ygan.

### **Xulosa.**

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, 20-yillar adabiy muhitida mustaqil va erkin ijod qilgan Vadud Mahmud o'z tadqiqotlarida jahon adabiyoti an'analari, tasavvuf ta'limoti va islom falsafasiga tayangan. Uning ijodiy yondashuvida Amerika hamda turk adib va munaqqidlarining tajribalaridan unumli foydalanish yaqqol ko'zga tashlanadi.

Munaqqidning mahorat va uslub masalalaridagi boy merosi bugungi kun adabiy tanqidchiligi uchun ham muhim manba va yuksak namuna bo'lib xizmat qiladi.

### **Vadud mahmud tadqiqotlarining o'ziga xos xususiyatlari:**

- Ilmiy asoslanganlik: Har bir fikr va mulohazaning aniq faktlar hamda ilmiy dalillar bilan mustahkamlanishi;
- Estetik tahlil: Badiiy asarga, birinchi navbatda, go‘zallik va san’at asari sifatida qarab, uning estetik qiymatini baholash;
- Yaxlitlik prinsipi: Asarning badiiyati, shakli, tili va uslubini o‘zaro uzviy bog‘liqlikda hamda yaxlit holda tadqiq etish;
- Xolislik: Ijodkor shaxsi va uning asarlariga nisbatan har qanday mafkuraviy tazyiqlardan xoli, haqqoniy munosabatda bo‘lish;
- Struktural yondashuv: Badiiy matnning ichki qurilishi va undagi nafosat unsurlariga tayangan holda xulosalar chiqarish.

### **Foydalanilgan adabiyotlar :**

1. Vadud Mahmud. Tanlangan asarlar. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2007.
2. Bahodir Karimov. Vadud Mahmud: Hayoti va ijodi. – Toshkent: “Fan”, 2005.
3. Ne’mat Hakim. O‘zbek adabiyotida tanqid va adabiy muhokamalar. – Toshkent: “Adabiyot va san’at”, 1984.
4. Vadud Mahmud. Bu kungi she’rlarimiz va san’atkorlarimiz // “Maorif va o‘qituvchi” jurnali, 1925, 5-6, 7-8-sonlar.
5. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) – elektron kutubxona portali.